

**“Auto Fortis” MChJ bosh direktorining
MUROJAATI**

Hurmatli hamkasblar va hamkorlar!

Korrupsiya muammosi so‘nggi yillarda jahon miqyosida transmilliy jinoyat sifatida xorijiy davlatlar hukumatlari va xalqaro tashkilotlarni tashvishga solayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu xavf O‘zbekistonga ham birdek tegishli bo‘lib, korxonamiz ishchi xodimlari ham befarq bo‘lmasliklari, korrupsiyaga qarshi kurashda davlatimizda izchil amalga oshirilayotgan korrupsion omillarga barham berishga qaratilgan keng ko‘lamli huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarga faolroq bo‘lib javob qaytarishimiz lozim.

Jamiyatning bir a‘zosi sifatida korxonamizda “Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati”, “Odob-axloq kodeksi”, “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish siyosati” kabi 15 dan ortiq korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki me‘yoriy hujjatlar va tartib-qoidalar qabul qilindi.

Shuningdek, korxonada ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan komplayens ichki nazorat tizimi joriy etildi.

Mehnat va xo‘jalik munosabatlarida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, korrupsiyaga qarshi kurashishda preventiv choralarni kuchaytirish va mazkur yo‘nalishdagi bilimlarni oshirish maqsadida ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablari bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Jamoamiz, O‘zbekiston xalqi va hamkorlarimiz oldidagi korxonamizga yuklangan mas‘uliyatni anglagan holda korrupsiyaning har qanday ko‘rinishi va holatlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha barcha sa‘y harakatlar amalga oshirilmoqda.

“Auto Fortis” MChJ o‘z navbatida, o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni vijdonan bajarilishi va qonun hujjatlariga qat‘iy rioya etilishini kafolatlaydi.

Shunday ekan, Barchamiz korrupsion holatlarni oldini olish va unga chek qo‘yish uchun mas‘ul ekanligimizni anglashimiz zarur.

Barchani, ayniqsa hamkasb va hamkorlarimizni ish yuritishda xalqaro standartlarga hamda korrupsiyaga qarshi tamoyillarga rioya qilishga va shubha tug‘ilgan taqdirda, ehtimoliy qonunbuzarliklar haqida bizga xabar berishga yana bir bor chorlab qolamiz.

Hurmat bilan,

**“Auto Fortis” MChJ
bosh direktori:**



X.O. Nazarov

“Auto Fortis” МЧЖ бош директорининг

МУРОЖААТИ

Хурматли ҳамкасблар ва ҳамкорлар!

Коррупция муаммоси сўнгги йилларда жаҳон миқёсида трансмиллий жинойт сифатида хорижий давлатлар ҳукуматлари ва халқаро ташкилотларни ташвишга солаётган долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Ушбу хавф Ўзбекистонга ҳам бирдек тегишли бўлиб, корхонамиз ишчи ходимлари ҳам бефарқ бўлмасликлари, коррупцияга қарши курашда давлатимизда изчил амалга оширилаётган коррупцион омилларга барҳам беришга қаратилган кенг кўламли ҳуқуқий, сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ислоҳотларга фаолроқ бўлиб жавоб қайтаришимиз лозим.

Жамиятнинг бир аъзоси сифатида корхонамизда “Коррупцияга қарши курашиш сиёсати”, “Одоб-ахлоқ кодекси”, “Манфаатлар тўқнашувини бошқариш сиёсати” каби 15 дан ортиқ коррупцияга қарши курашишга қаратилган ички меъёрий ҳужжатлар ва тартиб-қоидалар қабул қилинди.

Шунингдек, корхонада илғор халқаро стандартларга асосланган Комплаенс ички назорат тизими жорий этилди.

Меҳнат ва хўжалик муносабатларида манфаатлар тўқнашувининг олдини олиш, коррупцияга қарши курашишда превентив чораларни кучайтириш ва мазкур йўналишдаги билимларни ошириш мақсадида ИСО 37001:2016 халқаро стандарти талаблари босқичма-босқич амалиётга татбиқ этилмоқда.

Жамоамиз, Ўзбекистон халқи ва ҳамкорларимиз олдидаги корхонамизга юкланган масъулиятни англаган ҳолда коррупциянинг ҳар қандай кўриниши ва ҳолатларига йўл қўймаслик бўйича барча саъй ҳаракатлар амалга оширилмоқда.

“Auto Fortis” МЧЖ ўз навбатида, ўз зиммасига олган мажбуриятларни виждонан бажарилиши ва қонун ҳужжатларига қатъий риоя этилишини кафолатлайди.

Шундай экан, Барчамиз коррупцион ҳолатларни олдини олиш ва унга чек қўйиш учун масъул эканлигимизни англашимиз зарур.

Барчани, айниқса ҳамкасб ва ҳамкорларимизни иш юритишда халқаро стандартларга ҳамда коррупцияга қарши тамойилларга риоя қилишга ва шубҳа туғилган тақдирда, эҳтимолий қонунбузарликлар ҳақида бизга хабар беришга яна бир бор чорлаб қоламиз.

Хурмат билан,

“Auto Fortis” МЧЖ Бош
директори:



Х.О.Назаров